

## AQLIY RIVOJLANISHIDA MUAMMOLARI BO'LGAN BOLALARDA JAMOADA ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Abdunazarov Abdumutal Olimovich,**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti,*

*Maxsus pedagogika kafedrasi dotsenti*

[abdumutal517@mail.ru](mailto:abdumutal517@mail.ru)

ORCID: 0000-0003-0145-0954

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va korreksion metodikasi tahlil qilingan. Tadqiqotda mazkur toifadagi bolalarning ijtimoiy faolligi, kommunikativ imkoniyatlari, o'zaro hamkorlik qilish qobiliyati hamda jamoaviy faoliyatdagi ishtirokining psixologik-pedagogik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, maqolada guruhli mashg'ulotlar, syujetli-rolli o'yinlar, interfaol metodlar va kommunikativ treninglar asosida bolalarda hamkorlik, mas'uliyat, o'zaro yordam va muloqot madaniyatini shakllantirishning samarali usullari ochib berilgan. Tadqiqot natijalari jamoaviy faoliyatga yo'naltirilgan korreksion-pedagogik yondashuvlar bolalarning ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Maqola yakunida jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar, jamoada ishlash ko'nikmalari, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiya, korreksion-pedagogik metodika, interfaol metodlar, syujetli-rolli o'yinlar, guruhli faoliyat, hamkorlik, maxsus pedagogika, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ko'nikmalar.

**Аннотация.** В данной статье анализируется педагогическая и коррекционная методика развития навыков командной работы у детей с проблемами умственного развития. В исследовании освещаются психолого-педагогические характеристики социальной активности, коммуникативных способностей, умения сотрудничать и участия в командной деятельности детей этой категории. В статье также раскрываются эффективные методы формирования культуры сотрудничества, ответственности, взаимопомощи и общения у детей на основе групповых упражнений, ролевых игр, интерактивных методов и коммуникативного тренинга. Результаты исследования показывают, что коррекционно-педагогические подходы, ориентированные на командную работу, являются важным фактором развития социальной адаптации и коммуникативной компетентности детей. В заключение статьи разработаны практические рекомендации по развитию навыков командной работы.

**Ключевые слова:** дети с проблемами умственного развития, навыки командной работы, социальная адаптация, коммуникативная компетентность, коррекционно-педагогические методы, интерактивные методы, сюжетно-ролевые игры, групповая работа, сотрудничество, специальная педагогика, инклюзивное образование, социальные навыки.

**Abstract.** This article analyzes the pedagogical and correctional methodology for developing teamwork skills in children with mental development problems. The study highlights the psychological and pedagogical characteristics of social activity, communicative abilities, ability to cooperate, and participation in team activities of children in this category. The article also reveals effective methods for forming a culture of cooperation, responsibility, mutual assistance, and communication in children based on group exercises, role-playing games, interactive methods, and communicative training. The results of the study show that correctional and pedagogical approaches focused on team activities are an important factor in the development of children's social adaptation and communicative competence. At the end of the article, practical recommendations are developed for developing teamwork skills.

**Keywords:** children with mental development problems, teamwork skills, social adaptation, communicative competence, correctional and pedagogical methods, interactive methods, plot-role-playing games, group activities, cooperation, special pedagogy, inclusive education, social skills.

**Kirish.** Bugungi kunda inklyuziv va ijtimoiy integratsiya jarayonlari ta'lim tizimi oldiga imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyat hayotiga muvaffaqiyatli moslashtirish, ularda mustaqil hayot kechirish hamda jamoada faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish kabi muhim vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limning dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Chunki mazkur toifadagi bolalarda bilish faoliyatining sustligi, kommunikativ qiyinchiliklar, emotsional-irodaviy jarayonlarning yetarlicha shakllanmaganligi hamda ijtimoiy tajribaning cheklanganligi jamoaviy faoliyatda samarali ishtirok etishga to'sqinlik qiladi.

Jamoada ishlash ko'nikmalari shaxsning ijtimoiylashuvi, muloqot madaniyati, hamkorlik qilish, o'zaro yordam ko'rsatish, mas'uliyatni his etish va ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda mazkur ko'nikmalarni shakllantirish ularning nafaqat ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatini, balki keyingi ijtimoiy hayotga moslashuvini ham belgilab beradi. Shu bois korreksion-pedagogik faoliyatda bolalarni jamoaviy faoliyatga jalb etish, ularda ijtimoiy faollikni rivojlantirish hamda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda inklyuziv ta'lim tizimining rivojlanishi aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda o'qitish, ularning ijtimoiy tajribasini boyitish va jamoada ishlash malakalarini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratmoqda. Shu bilan birga, amaliyotda mazkur bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid metodik ta'minotning yetarli emasligi, pedagoglarning maxsus tayyorgarlik darajasi hamda individual yondashuvning sustligi kabi muammolar saqlanib qolmoqda.[5] Mazkur maqolada aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik va korreksion metodikasi, uning ilmiy-nazariy asoslari hamda amaliy samaradorligi tahlil qilinadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvi va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi maxsus pedagogika, defektologiya va psixologiya fanlarida keng tadqiq etilgan. Xususan, L.S.Vigotskiy, A.R.Luriya, V.V.Lebedinskiy, M.S.Pevzner, G.M.Dulnev kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning kommunikativ faoliyati, ijtimoiy adaptatsiyasi va jamoaviy faoliyatdagi ishtirokining psixologik-pedagogik asoslari yoritilgan.[7]

L.S.Vigotskiy tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bolaning psixik rivojlanishi ijtimoiy muhit va hamkorlikdagi faoliyat bilan chambarchas bog'liqdir. Olimning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi qarashlari jamoada ishlash jarayonida tengdoshlar va pedagoglar bilan hamkorlik bolaning rivojlanish

imkoniyatlarini kengaytirishini asoslaydi. A.R.Luriya esa aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq va kommunikativ faoliyatning sust rivojlanishi ijtimoiy moslashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda jamoaviy faoliyatning bolalar shaxsini rivojlantirishdagi ahamiyati alohida qayd etiladi. Xususan, interfaol metodlar, kooperativ ta'lim texnologiyalari, syujetli-rolli o'yinlar hamda trening mashg'ulotlari bolalarda hamkorlik, o'zaro hurmat va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali vositasi sifatida e'tirof etilgan.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari ham mazkur muammoni yoritishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, professor L.R.Muminova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maxsus pedagogika tizimida imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashtirish, ularda kommunikativ va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tahlil qilingan. Olimaning ilmiy ishlanmalarida korreksion-rivojlantiruvchi ta'limning bolalar shaxsini shakllantirishdagi o'rni alohida ko'rsatib o'tilgan.[8]

M.Yu.Ayupova tadqiqotlarida maxsus ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, bolalarni jamoaviy faoliyatga jalb qilish va ularda hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari yoritilgan. Shuningdek, G'.B.Shoumarovning ilmiy izlanishlarida psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari, kommunikativ faoliyati va ijtimoiy adaptatsiyasining nazariy asoslari keng tahlil qilingan.[1]

P.M.Po'latova tomonidan inklyuziv ta'lim sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvi, sog'lom tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyati va pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimi tadqiq etilgan.[12] D.A.Nurkeldiyeva ilmiy tadqiqotlarida esa korreksion-pedagogik texnologiyalar yordamida aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda jamoaviy faoliyatga tayyorlash masalalari o'rganilgan.[9]

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish tizimli, uzluksiz va maqsadli korreksion-pedagogik faoliyatni talab qiladi. Biroq mavjud tadqiqotlarda aynan jamoaviy faoliyat orqali ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishning amaliy metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi kuzatiladi. Shu sababli mazkur muammoni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida chuqur tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan pedagogika hamda korreksion-rivojlantiruvchi yondashuv tamoyillari tanlandi. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish, suhbat, savolnoma, diagnostik tahlil, qiyosiy-taqqoslash, amaliy mashg'ulot va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida syujetli-rolli o'yinlar, kommunikativ treninglar, kichik guruhlarda ishlash hamda hamkorlikka asoslangan interfaol metodlar amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqotimizda tizimli yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatga asoslangan pedagogika hamda korreksion-rivojlantiruvchi yondashuv metodologik asos sifatida belgilandi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, diagnostik suhbat, savolnoma, qiyosiy tahlil, amaliy mashg'ulotlar va tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar bilan guruhli mashg'ulotlar, kommunikativ treninglar va hamkorlikka asoslangan o'yin texnologiyalari tashkil etildi.

**Tahlillar va natijalar.** Tadqiqot natijalari aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan korreksion-pedagogik metodikaning samaradorligini ko'rsatdi. Dastlabki diagnostika jarayonida bolalarning aksariyatida guruhli faoliyatda qatnashish, tengdoshlari bilan muloqot qilish, vazifalarni taqsimlash va hamkorlikda qaror qabul qilish ko'nikmalari yetarli darajada shakllanmaganligi aniqlandi.

Korreksion-rivojlantiruvchi mashg'ulotlar davomida syujetli-rolli o'yinlar, kichik guruhlarda ishlash, "hamkorlikda o'rganish", kommunikativ treninglar va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlardan foydalanildi [15]. Natijada bolalarda jamoa bilan ishlashga qiziqish ortgani, o'zaro yordam ko'rsatish, sheriklarini tinglash va birgalikda faoliyat olib borish ko'nikmalari rivojlangani kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, muntazam tashkil etilgan guruhli mashg'ulotlar bolalarning kommunikativ faolligini oshirib, ularda emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv darajasining yaxshilanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, sog'lom tengdoshlari bilan hamkorlikdagi faoliyat bolalarda ijobiy motivatsiyani shakllantirish, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va ijtimoiy tajribani boyitishda muhim omil bo'ldi. Shuningdek, pedagog va ota-onalar o'rtasidagi tizimli hamkorlik bolalarning jamoada ishlash ko'nikmalarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Ota-onalarga berilgan metodik tavsiyalar bolalarni oilada ham jamoaviy faoliyatga jalb qilish imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va korreksion-rivojlantiruvchi yondashuvni talab qiladi. Mazkur jarayonda bolalarning individual imkoniyatlari, psixologik holati va kommunikativ ehtiyojlarini hisobga olish pedagogik samaradorlikni oshiradi.

Muhokama davomida aniqlanishicha, interfaol metodlar va kooperativ ta'lim texnologiyalari bolalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ayniqsa, syujetli-rolli o'yinlar bolalarning emotsional holatini barqarorlashtirish, muloqotga kirishish va jamoada o'z o'rnini his etishiga yordam beradi. Guruhli faoliyat esa ularda mas'uliyat, hamkorlik va o'zaro yordam ko'nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ayrim hollarda pedagoglarning maxsus metodik tayyorgarligi yetarli emasligi yoki ota-onalarning pedagogik jarayondagi sust ishtiroki jamoada ishlash ko'nikmalarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli

pedagoglar malakasini oshirish, ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni kuchaytirish hamda inklyuziv ta'lim muhitida korreksion texnologiyalarni keng qo'llash zarur hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari Vigotskiyning ijtimoiy muhit va hamkorlikdagi faoliyatning shaxs rivojlanishidagi yetakchi roli haqidagi nazariy qarashlari bilan uyg'unlikda ekanligi kuzatildi. Chunki bolalarning jamoaviy faoliyatga muntazam jalb etilishi ularning kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirdi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarda jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ularning ijtimoiylashuvi, kommunikativ faoliyati va mustaqil hayotga tayyorlanishida muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari korreksion-pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va guruhli faoliyatga asoslangan mashg'ulotlarning bolalarda hamkorlik, muloqot va ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi.

Shuningdek, pedagog, psixolog va ota-onalarning o'zaro hamkorligi jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning muhim sharti ekanligi aniqlandi. Inklyuziv ta'lim muhitida sog'lom tengdoshlari bilan birgalikdagi faoliyat bolalarning kommunikativ tajribasini boyitish va ularning ijtimoiy moslashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi [12]. Mazkur tadqiqot natijalari maxsus va inklyuziv ta'lim tizimida korreksion-pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish, aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning jamoaviy faoliyatga integratsiyasini ta'minlash hamda ularning ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayupova, M. Y. (2020). Maxsus pedagogika va logopediya asoslari. Fan.
2. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awareness-monolingual-classroom-0>
3. Friend, M. (2021). Special education: Contemporary perspectives for school professionals. Pearson Education.
4. Hallahan, D. P., Kauffman, J. M., & Pullen, P. C. (2019). Exceptional learners: An introduction to special education. Pearson Education.
5. Karimova, V. M. (2018). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Fan va texnologiya.
6. Kholikova, N. (2020). Poetic Features of Uzbek Poetry of the National Awakening Period. ISJ Theoretical & Applied Science, 04(84), 615–623.
7. Lebedinskiy, V. V. (2004). Narusheniya psixicheskogo razvitiya u detey. Akademiya.
8. Muminova, L. R. (2019). Maxsus pedagogika. O'qituvchi.
9. Nurkeldiyeva, D. A. (2022). Inklyuziv ta'limda korreksion-pedagogik texnologiyalar. Universitet.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida qaror. <https://lex.uz>
11. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. (2020). <https://lex.uz>
12. Po'latova, P. M. (2021). Inklyuziv ta'limning pedagogik asoslari. Tafakkur.
13. Shoumarov, G'. B. (2017). Maxsus psixologiya. Nizomiy nomidagi TDPU.
14. Smith, D. D. (2020). Introduction to special education: Making a difference. Pearson Education.
15. Yusupova, M. A. (2021). Inklyuziv ta'lim muhitida ijtimoiy moslashuv texnologiyalari. Xalq ta'limi, 3(5), 44–49.